

O'SMIRLARDA TAFAKKUR DARAJALARINING NAMOYON BO'LISHINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shixova Inobat Omonovna

Xorazm viloyati pedagogik Mahorat Markazi katta o'qituvchisi, psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), telefon: 91-428-64-32. inobat@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlarda tafakkur darajalarining namoyon bo'lishini o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, tanqidiy qarash, sezgi, idrok va tassavur, sezgi, idrok va tassavur, umumlashgan, tafakkur mahsuli, bevosita aks ettirishdir

Tafakkur ko'pgina fan sohalarining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'z-o'zini tanqid, baholash, tekshirish, nazorat qilish, guruhviy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi, ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Tashqi olamdagi voqyeilikni sezgi, idrok va tassavur jarayonlari orqali bilish muhim ahamiyat kasb etadi, lekin o'rganilayotgan narsa va hodisalarni atroflicha chuqur aks ettirish uchun bular hali yetarli emas. Chunki ularning o'zaro munosabatlari, sifat va miqdor o'zgarishlari, murakkab ichki bog'lanishlari, o'zaro ta'sir etish xossalarini bevosita kuzatish yoki hissiy obrazlar yordamida aniqlash imkoniyati yo'q. Madomiki shunday ekan, subyektning bilish lozim bo'lgan obyekt bilan o'zaro ta'sirini bevosita aks ettirish yo'li orqali bo'laklarga ajratish imkoniyati cheklanganligi sababli hissiy bilish bosqichidan aqliy bosqichga, ya'ni tafakkurga o'tish zarurati tug'iladi. Fikr yuritish yordamida atrof-muhitni chuqurroq bilish, narsalar, voqyealar va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro ichki munosabatlar, bog'lanishlarni aniqlash problematik tarzda namoyon bo'ladi. Inson oldida problema – muammo vujudga kelmas ekan, u holda tafakkur jarayoni hosil bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, inson o'zining bilish faoliyatida voqelikning murakkab jihatlarini hissiy bosqich yordami bilan aks ettira olmay qolganda tafakkurga, fikr yuritishga murojaat qiladi. Insonning bilish faoliyatida sezgi, idrok, tassavur obrazlari bilan tafakkur o'zaro uzliksiz ravishda bir-birini boyitib turadi. Ana shunga binoan bilish jarayonining hissiy va aqliy bosqichlari mavjuddir.

Tafakkur, sezgi va idrokdan farq qilib, bir nechta xususiyatga egadir:

- 1) voqelikni umumlashgan holda aks ettirishdir.
- 2) ikkinchi muhim xususiyati bog'lanishlarni bevosita aks ettirishdir. Bu xususiyat tufayli tabiat va jamiyatdagi turli hodisa va voqealar o'rtasidagi bog'lanishlarni tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

3) narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishdan iboratdir. Insonning fikr yuritishi bir va undan ortiq so'zlar, tushunchalar vositasida ifodalanadi. Shuning uchun odam o'ylayotganda o'z fikrini aytayotgandek, gapirayotganda esa fikr yuritayotgandek tuyuladi.

Hozir zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Tafakkur boshqa psixik jarayonlardan, unda qandaydir muammoli vaziyat mavjudligini ta'kidlaydi, uni hal qilib, qaysi bir kishining hissiy tajribadan chalg'itishi va muayyan amaliy yoki nazariy xulosalar chiqarishiga, bilim chegaralarini kengaytirishga qaror qilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Tafakkur ko'pincha ijtimoiy amaliyotning tarixiy rivojlanish mahsuli, inson faoliyatining alohida nazariy shakli sifatida qaraladi. Tafakkur voqelikni nafaqat oddiy obrazlar, balki, o'z navbatida, nazariy yo'l bilan olingan turli aloqalar, qonunlar sifatida aks ettiradi. Bu borada A.V.Brushlinskiy shunday yozgandi: «tafakkurning asl tabiati shundan iboratki, u doim qandaydir yangilikni mustaqil, doim ochiq holda kashf etadi. Avvalo tafakkurga ongli faoliyatning noma'lum mahsuli sifatida, unga darhol erishish mumkin emas. Boshqa tomondan, u keyingi faoliyatlar uchun juda zarurdir. Mazkur holatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'zida ma'lum bir vazifa yoki muammoni izlovchi va keyin esa ularni hal etilishi yo'llarining topilishini namoyon etuvchi psixik yangi hosilalar shakllanish jarayonida ifodalanadi. Mana shuning uchun tafakkur jarayon sifatida, oldindan tayyor va taqdim etiladigan bo'lmay, balki shakllantiruvchi jarayon bo'lib hisoblanadi [41].

Ko'rgazmali-harakatli tafakkur inson idroki orqali his etib, qabul qilingan narsa va ma'lumotlar, bevosita aloqalar bilan amal qiluvchi uzviy bog'liqlikda tavsiflanadi; to'g'ridan-to'g'ri manipulyatsiya qilingan narsalar bilan uzviy aloqador; aslida, mumkin bo'lmagan amaliy harakatlarsiz, oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etishdan iborat.

Bu borada olimlardan N.N.Pospelov va I.N.Pospelovlar quyidagicha fikr yuritganlar: «O'quvchilarda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi – bu ularga mantiqiy talablar bo'yicha bilimlar berish va o'quv hamda amaliy faoliyatda mazkur talablardan foydalanib, malakalar ishlab chiqilishidir». O'smirlarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik jihati ta'lim jarayonini tashkil etishning zarur didaktik shartlarini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazishdan iborat. Bu, – deb yozadi A.D.Getmanova [75], – pedagogika fani tafakkurni o'sib kelayotgan avlod ta'lim va tarbiyasi jarayonida bilish jarayonlarini amalga oshirish tomonidan o'rganadi. Ko'plab pedagog va metodist-olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilarni mantiqiy tafakkur usullariga o'rgatish zarurligi ta'kidlangan. Ayrim pedagoglar tafakkurning rivojlanishini o'smirlarda bilimlar egallashi va ularda malaka hamda ko'nikmalar shakllanishi hamda ulardan o'quv va amaliy faoliyatlarida foydalanishlari sifatida tushunadilar [105].

Psixologlardan L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, L.V.Zankov, D.B.Elkonin ta'limga muhim e'tibor qaratib, o'smirlarda psixik rivojlanishi va uning ta'lim-tarbiyasiga psixologik-pedagogik nazariyani ishlab chiqish bilan katta hissa qo'shdilar. O'smirlarning psixik rivojida ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liq barcha sanab o'tilgan nazariyalarini birlashtiruvchi umumiy xususiyat mavjud: o'quvchiga rivojlantiruvchi ta'sirlar ta'limning turli o'zgarish jarayonlari, o'quvchiga nisbatan uning bevosita faoliyatiga tashqi ta'sir, mazmun o'zgarishi, ta'lim metodikasi va boshqalar yordamida amalga oshiriladi [61; 68; 159].

Tafakkurni rivojlantirish uchun o'smirlarda o'ziga xos xususiyatlariga eng mos usul va metodlardan foydalanish zarur.

Buning natijasida o'quvchilarda kompyuterdan foydalanishga oid dastlabki ko'nikmalar tarkib topadi. Shunda har bir o'quvchida o'zlari uchun zarur bo'lgan axborotlar bazasini yaratishga bo'lgan intilish vujudga keladi. Bu jarayonda guruh a'zolari birgalikda harakat qila boshlaydilar. Har bir o'quvchi o'z bilim zaxirasini guruhdoshlari egallagan bilimlar yordamida boyitish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan o'quv materiallari yaqindan yordam beradi. Buning uchun, o'qituvchi intellektual xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan kengroq foydalangan holda hamkorlikka asoslangan o'quv muhitini vujudga keltirishga muvaffaq bo'ladi [64].

Jamiyatning rivoji inson tafakkuri ta'sirida amalga oshadi. Tafakkur obyektiv borliqning inson ongida faol aks ettirish jarayonidir. Tafakkur ham mazmun va shaklga ega. Alohida fikrlar tuzilmasi va ularni maxsus birlashmalariga tafakkurning shakllari deyiladi. Tafakkurning shakllari quyidagilar: tushuncha, hukm va tasdiqlar. Ma'lumki, o'qitish jarayonining ikki tomoni bor; o'qituvchi o'qitadi, o'quvchi o'qiydi, o'qitishning muvaffaqiyati faqat o'qituvchining muvaffaqiyati faqat o'qituvchining ilmiy va metodik bilimdonligigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, o'quvchining bilimini o'zlashtirishdagi ijodiy aktivligi va mustaqilligiga ham bog'liq, hatto mana bunday deyish ham to'g'riroq bo'ladi; o'qituvchining ustaligini o'z o'quvchilarini o'quv jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasiga qarab baholash mumkin; o'smirlarda mustaqil aqliy va amaliy ishlarini tashkil qila olgan pedagog usta pedagogdir. O'qitish ishida, eng asosiysi, o'qituvchining materialni bayon qilishi emas, balki o'smirlarda faol ijodiy ishlaridir deb tasdiqlash yuqorida aytilgan ma'noda juda to'g'ri bo'ladi. O'qitishdagi bayon metodi o'quvchilarda qiziqish va ularning diqqatini uyg'otishi, ular oldiga kelajakda yechishga to'g'ri keladigan masalalar va muammolarni qo'yishi kerak.

O'smirlarda fikrlash faoliyatini rivojlantirishning mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni o'zgartirishda va ularni amalda qo'llanishda fikrni mustaqil ravishda ishlatish.

2. Bilib olish qobiliyatini rivojlantirish.

3. Har tomonlama psixik rivojlanishi, ya'ni tegishli iroda sifatlarning tashkil topishi, aqliy mehnatga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi, o'quv faoliyati sabablarini anglash va hokazolar. Shunday qilib, o'quvchilarni fikrlash faoliyatini rivojlantirish deganda, ularning bilimlarini takomillashtirish va tatbiq qilish jarayonida bu jarayonga bog'liq bo'lgan mustaqil aqliy va amaliy faoliyatni kuchaytirish asosida har tomonlama taraqqiy qilishini tushunamiz. O'quvchining faol o'quv faoliyatini uyushtirishda o'qituvchining roli, o'qitishning passiv metodlariga nisbatan, ya'ni o'quvchining vazifasi faqat eshitish, esda saqlab qolish va takrorlashdan iborat bo'lgan metodga nisbatan beqiyos ortadi. O'quvchi faqat tinglayotgan bo'lib ko'rinadi, lekin tinglash ham turlicha bo'lishi mumkin. Mahoratli hikoya qilingan ma'ruza o'quvchilar diqqatini o'ziga tortishi ularda qo'yilgan masalaning tabiatini bilib olishga bo'lgan havasni uyg'otishi, xatarli xatolarning oldini olish, bilimlarini keng doiradagi amaliy masalalarga tatbiq qilishga chorlashi mumkin. Faqat o'smirlarda hayotiy va o'qish tajribasini hisobga olgan holdagina o'tkaziladigan ma'ruza yoki suhbatini qiziqarli (ta'sirchan) qilib tashkil etish mumkin. K.D.Ushinskiyning quyidagi so'zlarini esga olaylik: «Bizning diqqatimizni uyg'otish uchun, predmet biz uchun yangilik bo'lishi, qiziq yangilik, ya'ni shunday yangilik bo'lishi kerakki, u yo bizning bilimimizni to'ldirishi yoki tasdiqlashi, yoki uni tor-mor qilishi kerak ».

Psixologlar shunday deb tasdiqlaydilar :

«O'smirlarda o'qishga bo'lgan qiziqish, uning o'zi bevosita «kashfiyot» yaratishida paydo bo'ladi. Tayyor bilimlar, tayyor xulosalar yosh o'smirni qanoatlantirmaydi, u ularni yuzaki ravishda yod oladi, xolos. Mana shuning uchun ba'zan harakatchan, ziyrak yosh o'smirlar o'rtacha o'qiydilar va o'qituvchiga ko'p bezovtalik keltiradi».